

RESPUBLIKAMIZ HUDUDIDAGI JAMI EKIN MAYDONLARI TARKIBI

Qo‘ziboyev Shuhratjon Tursunaliyevich

(barcha toifadagi xo‘jaliklar)

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institute Dexqonchilik va
o‘rmon melioratsiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimiz ekin maydonlarining tarkibi, sug‘orma dexqonchilik tarixiy taraqqiy etganligi, donli ekinlar qaysi hududlarda ekish maqsadga muvofiqligi haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘orma dexqonchilik, ekin maydonlari, yerlarning taqsimlanishi, texnik ekinlar, paxta yetishtirish, agrotexnik tadbirlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены научные сведения о составе посевных площадей нашей страны, историческом развитии орошаемого земледелия, а также о площадях, на которых следует сажать зерновые культуры.

Ключевые слова: орошаемое земледелие, посевые площади, землеотвод, технические культуры, возделывание хлопчатника, агротехнические мероприятия.

ANNOTATION

This article provides scientific information about the composition of cultivated areas of our country, the historical development of irrigated agriculture, and the areas in which grain crops should be planted.

Key words: irrigated agriculture, cultivated areas, land distribution, technical crops, cotton cultivation, agrotechnical activities.

KIRISH

Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida qishloq xo‘jaligidagi muammolarni bartaraf qilish, ekin maydonlarini to‘g‘ri tanlash hamda yangi ser-hosil navlardan foydalanish bo‘yicha topshiriq berdi. O‘zbekiston Respublikasi ulkan mehnat resursi va qishloq xo‘jalik yerlariga ega davlatdir. Bu hududda uzoq asrlar davomida o‘troq yashab kelayotgan aholi tomonidan yangi yerlar o‘zlashtirilib kelingan. O‘zbekiston hududida 3-3,5 ming yil avval birinchi sug‘orish inshootlari qurila boshladi. Dehqonchilik qilinadigan va aholi yashash manzilgohlariga yaqin bo‘lgan joylarda dastlabki suv omborlar, kanallar qazilishi boshlandi. Yurtimizda sug‘orma dehqonchilikning eng qadimgi hududlariga Movarounnahrni misol qilib keltirish mumkin. Bu yerda sug‘orma dehqonchilik deyarli 5 ming yillik tarixga ega. O‘zbekiston Respublikasi hozirgi kunda jahonda sug‘oriladigan yerlar maydoniga ko‘ra 11-o‘rinda turadi. Hududda asosiy dehqonchilik sug‘orma (obikor), qisman lalmikor holatda olib boriladi. O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlar maydoni 4,2 mln hektar, lalmikor yerlar esa 734 ming hektarni tashkil qiladi. Quyida ekin maydonlarining yillar kesimida o‘zgarib borishi haqida ma’lumot beramiz.

Don ekinlari (ming hektar hisobida)

2017-yil 1655,6

2018-yil 1643,2

2019-yil 1578,3

2020-yil 1646,2

Bug‘doy (ming hektar hisobida)

2017-yil 1411,1

2018-yil 1386,3

2019-yil 1316,1

2020-yil 1359,1

Makkajo‘xori don uchun (ming hektar hisobida)

2017-yil 37,8

2018-yil 40,8

2019-yil 44,1

2020-yil 51,9

Sholi (ming gektar hisobida)

2017-yil 73,1

2018-yil 46,8

2019-yil 71,0

2020-yil 64,2

Dukkakli don (ming gektar hisobida)

2017-yil 28,0

2018-yil 56,1

2019-yil 49,2

2020-yil 52,7

Texnik ekinlar (ming gektar hisobida)

2017-yil 1253,3

2018-yil 1150,5

2019-yil 1099,5

2020-yil 1062,3

G‘o‘za (ming gektar hisobida)

2017-yil 1201,2

2018-yil 1108,2

2019-yil 1050,6

2020-yil 1062,3

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, donli ekinlar maydonida yillar kesimida o'zgarishlar bo'lmoqda. Bunga sabab zahiradagi bo'lgan don mahsulotlari hajmi hamda donga bo'lgan ehtiyojga qarab turlicha maydonlarda ekib kelinmoqda. Shuni aytib o'tish lozimki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng don mustaqilligini ham qo'lga kiritdi. Mustaqillikkacha yurtimizda 20 foiz ekin maydonlariga donli ekinlar ekilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 50 foizga yetdi. Shuningdek, bug'doy lalmikor

hamda tuproq sharoiti qulay bo‘lgan yerlarga, makkajo‘xori chorvachilik va parrandachilik rivojlangan rayonlarda, sholichilik esa daryo va suv omborlar mavjud bo‘lgan suv resursiga boy bo‘lgan hududlarda ekib kelinmoqda. Aytib o‘tish lozim bir tonna bug‘doy yetishtirish uchun 1500 tonna, bir tonna paxta yetishtirish uchun 12000 tonna, bir tonna sholi yetishtirish uchun 15000 tonna suv talab qilinadi. Shuning uchun suv resursini e’tiborga olgan holda ekin turi tanlanib olinsa, dehqonchilikda unumdarlik bo‘ladi. Suv taqchilligi oldini olinadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyoti rivojlanib, aholi soni ko‘payib borayotgan O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik sohalarida bor imkoniyatlarni ishga solish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish,

- ekin maydonlarini ishdan chiqib ketishini oldini olish,
- maydon birligida hosildor navlarni yaratish va ularni amaliyotga tadbiq qilish,
- oziq-ovqat va meva-sabzavot importiga barham berib, ichki ehtiyojni qondirish aholi yashash sharoitini yanada yaxshilash qishloq xo‘jaligi sohasining asosiy ustuvor vazifasi bo‘lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2021-yildagi statistik to‘plami.